



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
Tayanch doktorantura (PhD)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar
bo'yicha)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)


EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: KUSHIYEVA NODIRA XABIBJONOVNA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: MICHELLE BEDEKER

New Uzbekistan University

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAI260005
Xulosa raqami	864
Xulosa sanasi	30.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"URGANCH RANCH TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xonqa ko'chasi, 26-a-uy. Guvohnoma: MAS № 0000296, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	13.00.02
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000296, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	13.00.02 – Theory and Methodology of Education and Upbringing
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	Tayanch doktorantura
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	—
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	3 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	8-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tadqiqotchi (PhD)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	30 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Xonqa ko'chasi, 26-a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan dastlabki hujjatlar, shuningdek, platforma orqali qo'shimcha ravishda taqdim etilgan hujjatlar, tushuntirishlar va asoslovchi materiallar kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi shakllantirilgani, mas'ul tarkibiy tuzilmalarning faoliyati, vakolat va funksiyalari amaldagi normativ hujjatlar asosida belgilab qo'yilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining moddiy-texnik, moliyaviy va kadrlar resurslari bilan ta'minlangani, boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratilgani kuzatildi. Dastlabki ekspertiza davomida qayd etilgan ayrim masalalar yuzasidan qo'shimcha hujjatlar va asoslovchi materiallarning taqdim etilgani hamda ular asosida tegishli kamchiliklarning bartaraf etilgani tasdiqlandi. Mazkur yondashuv ta'lim dasturini takomillashtirish, sifatni ta'minlash mexanizmlarini izchil rivojlantirish va belgilangan talablarning amalda bajarilishini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida dastlabki ekspertiza davomida qayd etilgan masalalar yuzasidan platforma orqali taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va asoslovchi materiallar kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura ta'lim dasturini ishlab chiqish, manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash hamda dastur maqsadlari, kutilayotgan ilmiy natijalar va shakllantiriladigan kompetensiyalarni belgilashga oid talablar bajarilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni Milliy malakalar ramkasining 8-darajasi hamda oliy

ta'limdan keyingi ta'limga qo'yilgan talablar asosida shakllantirilgani, dastur maqsadlari va ilmiy natijalarning o'zaro uzviy bog'liqligi ta'minlangani kuzatildi. Pedagogika ixtisosligidagi doktorantura ta'limida zamonaviy ta'lim nazariyalari, innovatsion metodologik yondashuvlar va ilmiy tadqiqot metodlarining dastur mazmuniga integratsiya qilingani ilmiy izlanishlar sifatini oshirish hamda ta'lim tizimining dolzarb ehtiyojlariga javob berishga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan ilmiy natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish, izlanuvchilar faoliyatini baholash, akademik halollik va akademik erkinlikni ta'minlash hamda baholash natijalari yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqish tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan qayta tahlillar natijasida platforma orqali taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va tushuntirishlar dastlabki ekspertiza davomida qayd etilgan masalalar bartaraf etilganini tasdiqladi. Ilmiy tadqiqot jarayonining barcha bosqichlari, jumladan individual tadqiqot rejasini shakllantirish, uning bajarilishini monitoring qilish, ilmiy rahbar xulosalarini rasmiylashtirish va tadqiqot natijalarini baholash jarayonlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Akademik halollik va akademik erkinlik tamoyillariga rioya etishni ta'minlovchi mexanizmlar hamda baholash natijalari yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqish tartiblari amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda metodologik izchillik, ilmiy xolislik va akademik halollik tamoyillariga qat'iy amal qilinishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy qiymatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman, ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etish, monitoring qilish va tadqiqot natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida izlanuvchilarni qabul qilish, ularning harakatini tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlash tizimiga oid taqdim etilgan asosiy va qo'shimcha hujjatlar belgilangan mezonlar asosida qayta tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida platforma orqali taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va asoslovchi materiallar dastlabki ekspertiza davomida qayd etilgan masalalarning bartaraf etilganini tasdiqladi. Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartiblarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjatlar ishlab

chiqilgani, shuningdek izlanuvchilarning murojaatlari va apellyatsiya jarayonlarini ko'rib chiqishga oid mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Doktorantura bosqichida izlanuvchilarning ta'lim va ilmiy faoliyatini tartibga soluvchi aniq tartiblarning mavjudligi ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, izlanuvchilarni akademik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga maslahat berish va zarur metodik yordam ko'rsatish mexanizmlarining yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Umuman, izlanuvchilar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslari, ilmiy rahbarlik tizimi, ilmiy muhit, ilmiy yordamchi kadrlar hamda xalqaro ilmiy hamkorlikka oid hujjatlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan qayta tahlillar natijasida platforma orqali taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va tushuntirishlar ilmiy rahbarlar faoliyatini tashkil etish, ularni moddiy rag'batlantirish hamda ilmiy yordamchi kadrlar faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarining belgilanganini tasdiqladi. Ilmiy rahbarlik jarayonini samarali tashkil etish, ilmiy muhitni rivojlantirish va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur tashkiliy sharoitlar yaratilgani aniqlandi. Pedagogika ixtisosligidagi doktorantura ta'limida ilmiy rahbarlarning metodologik tayyorgarligi, ilmiy tadqiqot tajribasi va ilmiy salohiyati izlanuvchilarning ilmiy ishlar sifati hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro ilmiy hamkorlikning yo'lga qo'yilgani zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanish, ilmiy tajriba almashish va tadqiqotlar sifatini oshirish imkonini berishi qayd etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti, raqamli infratuzilma hamda inklyuziv ta'lim sharoitlariga oid asosiy va qo'shimcha hujjatlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida universitetda inklyuziv ta'limni tashkil etish va alohida ta'lim ehtiyojiga ega izlanuvchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilgani aniqlandi. Universitet binolarida to'siqsiz muhitni shakllantirish, xavfsizlik talablariga rioya etish, psixologik va akademik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish hamda

murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Ilmiy kutubxona fondi, elektron axborot-resurslar va raqamli infratuzilmaning mavjudligi pedagogika yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashi qayd etildi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish va barcha izlanuvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan amaliy choralarning yo'lga qo'yilgani ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti, raqamli infratuzilma va inklyuziv ta'lim sharoitlari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Xalqaro ilmiy hamkorlik va zamonaviy pedagogik tadqiqot metodologiyalariga kirishni kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Ilmiy kutubxona fondi va elektron resurslarni boyitish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va sifat jarayonlarini hujjatlashtirishni davom ettirish.
- ✓ Xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy pedagogik metodologiyalarni tatbiq etish.
- ✓ Ilmiy kutubxona fondi va elektron ilmiy resurslarni boyitish.
- ✓ Ilmiy rahbarlarning metodologik salohiyatini oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Urganch RANCH texnologiya universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) ta'lim dasturi uchun taqdim etilgan hujjatlar, ilmiy-tadqiqot jarayonini tashkil etish mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-

huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgani, dastur maqsadlari universitetning strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda hududning ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgani aniqlandi. Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, izlanuvchilar faoliyatini monitoring qilish, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash hamda tadqiqot natijalarini baholash tizimining amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Ilmiy rahbarlar tarkibining yetarli ilmiy salohiyat va malakaga ega ekani, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli infratuzilmaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlarni yaratishi qayd etildi. Dastlabki ekspertiza davomida qayd etilgan ayrim masalalar yuzasidan taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va asoslovchi materiallar qayta tahlil qilinib, aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilgani tasdiqlandi. Ayrim yo'nalishlarda mavjud amaliyotni yanada rivojlantirish imkoniyatlari saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, ular ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi hamda asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha muvofiq deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

